

QARZ SHARTNOMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLI HOLATLARNING YURIDIK TAHLILI

*Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro
huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabasi*

Baxtiyorova Farangiz Ulug'bek qizi

[*farangizbaxtiyorov@gmail.com*](mailto:farangizbaxtiyorov@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada qarz munosabatlari va u bilan bog'liq shaxslar o'rtasida yuzaga keladigan nizoli holatlar tahlili amalga oshiriladi. Qarz olish yoki berishda ko'pincha tanish-bilishlar taraflar bo'lganligi sababli, o'zaro o'rtadagi ishonchga asoslanib, shartnomani og'zaki shaklda – hech qanday rasmiy huquqiy hujjatalarsiz tuzishadi. Natijada esa qarz oluvchi qarz olganligini tan olmasligi, qarz beruvchi esa qarz berganligini tasdiqlashda qiyinchilikka duch kelishi mumkin.

Kalit so'zlar: Qarz beruvchi, qarz oluvchi, tilxat, real shartnoma, guvoh keltirish huquqi, dalillar.

Abstract: This scientific article analyzes debt relations and conflict situations that arise between related parties. Since acquaintances are often the parties in borrowing or lending, based on mutual trust, they conclude the contract verbally - without any official legal documents. As a result, the borrower may not admit that he has borrowed, and the lender may have difficulty confirming that he has given the loan.

Key words: Lender, borrower, receipt, real contract, witness rights, evidence.

Аннотация: В данной научной статье проводится анализ долговых отношений и конфликтных ситуаций, возникающих между взаимозависимыми лицами. Поскольку часто сторонами в займе или ссуде являются знакомые, основанные на взаимном доверии, они заключают договор в устной форме - без каких-либо официальных юридических документов. В результате заемщик может

не признавать, что он взял займы, а у кредитора могут возникнуть трудности с подтверждением того, что он дал заем.

Ключевые слова: Кредитор, заемщик, расписка, реальный договор, свидетельские права, доказательства.

(Kirish qism)

Qarz shartnomasi bilan bog'liq bir qancha fuqaroviy-huquqiy munosabatlari mavjud. Fuqarolik kodeksi 732-moddasiga binoan, qarz shartnomasi bo'yicha bir taraf – qarz beruvchi ikkinchi tarafga – qarz oluvchiga pul yoki turga xos alomatlari bilan belgilanadigan boshqa ashyolarni mulk qilib beradi, qarz oluvchi esa qarz beruvchiga bir yo'la yoki bo'lib-bo'lib, o'shancha summadagi pulni yoki qarzga olingan ashyolarning xili, sifati va miqdoriga baravar ashyolarni – qarz summasini – qaytarib berish majburiyatini oladi¹. Qarz munosabatlari haqida adabiyotlarda uning dastlabki huquqiy belgilari qadimgi Rimda paydo bo'lganligi haqida, shuningdek, pul ixtiro qilinishi bilan qarz shartnomasi o'zining hozirgi ko'rinishini olganligi ta'kidlanadi². Bundan kelib chiqadiki, qarz shartnomasining boshqa shartnoma turlariga nisbatan yoshi ulug', paydo bo'lishi bundan ming yillar oldingi davrlarda Xitoy, Lidiya kabi davlatlarda dastlabki qog'oz va tanga pullar muomalaga kirib kelishiga borib taqaladi.

(Muhokama va tahlillar)

Qarz shartnomalarining yuridik belgilariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak,

✓ **Real shartnomalar** guruhiga kiradi, chunki taraflar o'rtasida huquq va majburiyatlar shartnoma predmeti bo'lgan pul yoki ashyoning topshirilishi paytidan e'tiboran vujudga keladi va shartnoma shu paytdan e'tiboran tuzilgan hisoblanadi.

¹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.11.2022-y., 03/22/800/0990-son., <https://lex.uz/docs/-180552#-190102>

² Jamoa. Fuqarolik huquqi (Ikkinchi qism). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. (Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashri). – T.: "ILM ZIYO", 2008- 926 b

✓ **Bir tomonlama shartnomalar** yuzasida eng ko'p qo'llaniladigan misoldir.

Bir tomonlama shartnomaligi shuni anglatadiki, qarz beruvchida huquq (qarzning qaytarilishini talab qilish) va qarz oluvchida majburiyat (qarzni qaytarib berish majburiyati) bo'ladi.

✓ **Qarz shartnomasi taraflari** sifatida – qarz beruvchi istalgan fuqaro va

yuridik shaxs bo'lishi mumkin. Qarz oluvchi ham xuddi shunday fuqaro va yuridik shaxs bo'lishi mumkin.

Kundalik hayotimizda qarz bilan bog'liq munosabatlar ko'plab kuzatiladi. Ammo nizoli holatlar ham yo'q emas, masalan bir shaxs ikkinchi shaxsga qarz bersa-yu, ikkinchi tarafdin yaqin tanishim deb tilxat yoki boshqa shunga o'xshash qarz olinganligini tasdiqlovchi hujjat olmasa, natijada qarz oluvchi qarzni qaytarish muddati yetgan paytda qarz olganligini rad etsa qanday qilib qarzni undirib olsa bo'ladi? Qarz shartnomasi og'zaki tuzilishi ham mumkinmi?

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 733-moddasiga ko'ra, fuqarolar o'rtasida qarz shartnomasi, agar bu qarzning summasi bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan ortiq bo'lsa, oddiy yozma shakldan tuzilishi shartligi belgilab qo'yilgan. "Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish" to'g'risidagi joriy yilning 29-mart sanasidagi PF-45 ga ko'ra, 1-maydan boshlab bazaviy hisoblash miqdori — oyiga 330 000 so'm etib belgilangan Uning 10 baravari – 3 mln 300 000 (UZS) bo'ladi. Shu qiymatdan yuqori summada berilgan qarz uchun albatta tilxat olinishi kerak. Aks holda, 733-modda 1-qismiga ko'ra, qarz shartnomasining oddiy yozma shakliga amal qilinmagan hisoblanadi. Biroq xuddi shu moddaning 3-qismida qarz beruvchi qarz oluvchidan tilxat yoki tomonning muayyan summa yoki muayyan miqdordagi ashyolar topshirganligini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar mavjud bo'lsa, qarz shartnomasi yozma tuzilgan hisoblanadi deb ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 109-moddasiga binoan, bitimlarning oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik uning **haqiqiy emasligiga olib kelmaydi**, biroq nizo kelib chiqqan taqdirda taraflarni bitimning **tuzilganligi, mazmunini yoki bajarilganligini guvohlarning ko'rsatuvlari bilan**

tasdiqlash huquqidan mahrum etadi. Ya'ni 18 million qarz berilgan taqdirda (BHM ning 10 baravaridan ortiq) va tilxat olinmagan taqdirda, qarz beruvchi qarz berganini kuzatib turgan qarindoshi yoki do'stini qarz berganligini tasdiqlash uchun sudga guvoh sifatida jalb qila olmaydi. Fuqarolik Kodeksining 109-moddasi 2-qismiga ko'ra shartnoma tuzilganligini va mazmunini tasdiqlash uchun dalil sifatida keltirishi mumkin. Shuningdek, agar taraflar shartnomaning yozma shaklda tuzilganligini isbotlay olsa, guvoh keltirish huquqiga ega bo'ladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 733-moddasi 3-qismida, "qarz beruvchi tomonidan muayyan summa yoki muayyan miqdordagi ashyolar topshirilganligini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar" mavjud bo'lsa, qarz shartnomasi yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi. bizningcha, shartnoma rostan ham tuzilganligi, kelishilgan pulni qarz oluvchiga topshirganligini bir nechta yo'llar bilan isbotlashi mumkin:

- Agar pulni topshirilganligini tasdiqlaydigan hujjatlar elektron tarzda kartadan kartaga o'tkazilgan bo'lsa, dalil bo'lib xizmat qiladigan hujjatlarni toplash katta muammo tug'dirmaydi. Chunki har qanday mobil ilova orqali o'tkazilgan summa, kirim-chiqimlar tarixida saqlanib qoladi.

- Bank orqali o'tkazma amalga oshirilganligini tasdiqlashda ham bank hujjat taqdim etadi.

- Yana bir jihatni ham ta'kidlab o'tish lozim, agar kelishilgan summani yuzma-yuz topshirilganda, tabiiyki videoyozuvga tushib qolishlari, summani axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan yozishmalar mavjud bo'lishi mumkin. Bu esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Sudlar tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha dalillar va isbotlashga oid qonun normalarini qo'llash amaliyoti to'g'risida" gi qarorining 17- bandida mustahkamlangan, ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan sudga taqdim etilgan, **ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni o'zida saqlagan audio- yoki videoyozuvlar, elektron pochta yoki boshqa axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan yozishmalar sud tomonidan boshqa dalillar majmuida**

baholanishi lozim. Audio- yoki videoyozuvni taqdim etgan yoki uni talab qilib olish to'g'risida iltimosnoma bergan shaxs, yozuv qachon, kim tomonidan va qanday sharoitlarda (holatlarda) amalga oshirilganligini ko'rsatishi shart, mazkur yozuvni amalga oshirgan shaxs esa, zarurat vujudga kelganda, sud majlisida so'roq qilinishi mumkin. Qarz beruvchi shartnomada kelishilgan summani topshirganligini isbotlashi kerak. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 737-moddasining 3-qismida, agar qarz oluvchi qarz shartnomasi yuzasidan da'volashuvi jarayonida pul yoki boshqa ashyolar haqiqatan ham qarz beruvchidan olinaganligi aniqlansa, qarz shartnomasi tuzilmagan hisoblanadi. Fikrimizcha, ushbu vaziyatda, bir qancha yo'llar bilan shartnomaning oddiy yozma shakliga rioya qilinganligini isbotlab, guvoh keltirish huquqidan foydalanib, qarz oluvchining iqrorini guvohlar ko'rsatuvi orqali sudga ma'lum qilish yoki xuddi shu ma'lumotlarni dalil sifatida sudga taqdim etilishini tashkil etish mumkin. Agar qarz beruvchi tomonidan qarz oluvchi bilan kelishilgan summani topshirganligini boshqa hujjatlar bilan (elektron o'tkazmani tasdiqlovchi hujjati yoki bankga tashrif buyurish orqali o'tkazgan bo'lsa, bankning tegishli tasdiqlovchi hujjat) isbotlay olsa, qarz shartnomasi yozma shakldan tuzilgan hisoblanadi. Shu holatda sud O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 327-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan foizlarni qarz oluvchi majburiyatni vaqtida bajarmaganligi uchun to'laydi. Agarda qarz beruvchi qarz oluvchi bilan kelishilgan summani topshirganligini isbotlay olmasa, oddiy yozma shaklga rioya qilinmagan hisoblanib, guvohlarning ko'rsatmalarisiz ish yuritish davom etadi.

(Natija va xulosalar)

Xulosa qilib aytganda, ikki taraf qarz munosabatlariga kirishayotganda shartnomani to'g'ri rasmiylashtirishi qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan oshsa yoki yuridik shaxs bilan qarz shartnomasi tuzilganda oddiy yozma shaklga rioya etilishi, qarz beruvchining qarzni talab qilib olish huquqini tilxat yoki boshqa tasdiqlovchi hujjatlar bilan mustahkamlab qo'yishi kerak. Shartnoma shakliga va talablariga rioya qilish kelgusida kelib chiqadigan nizoli holatlarning oldini olishga va ularni osonlik bilan

hal etishga yordam beradi. Amaliyotda qarz shartnomasi niqobi ostida firibgarlik holatlari ham ko‘plab sodir etiladi³. Bu holatni aniqlashda qarz oluvchining qasdini aniqlash orqali jinoyat tarkibi mavjud yoki mavjud emasligi aniqlanadi. Bir so‘z bilan aytganda qarz bergan shaxs pulini qaytib kelishini ongli ravish kafolatlab qo‘ysa, muammolar kelib chiqmaydi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 04.11.2022-y., 03/22/800/0990-son., <https://lex.uz/docs/-180552#-190102>
2. Jamoa. Fuqarolik huquqi (Ikkinchi qism). Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. (Qayta ishlangan va to‘ldirilgan ikkinchi nashri). – T.: “ILM ZIYO”, 2008- 926 b
3. Differing fraud from sacking off the obligation which has originated from a contract in practice: notions and analyses foreign practice. <https://science-zone.org/index.php/conference/article/view/30>

³ Differing fraud from sacking off the obligation which has originated from a contract in practice: notions and analyses foreign practice. <https://science-zone.org/index.php/conference/article/view/30>